

Solve problems with branching algorithms using Scratch software

Siddikov Ilhomjon Meliqozievich

Acting Associate Professor of Informatics, Kokand State Pedagogical Institute, Ph.D.

Abdurashidova Sevara Iqboljon qizi

Kokand State Pedagogical Institute, specialty "Information Technology in Education"

2nd stage master

Scratch dasturidan foydalanib tarmoqlanuvchi algoritmlari masalalarini yechish

Siddiqov Ilhomjon Meliqo'ziyevich

Qo'qon davlat pedagogika instituti "Informatika" kaferdasi dotsenti v.v.b., t.f.n.

Abdurashidova Sevara Iqboljon qizi

Qo'qon davlat pedagogika instituti "Ta'limda axborot texnologiyalari" mutaxassisligi

2 - bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Scratch dasturining ta'limgagini ahamiyati, Scratch dasturlash muhitida animatsion va interfaol loyihalar, multfilmlar va boshqa multimedia mahsulotlarini yaratish, Scratch dasturi ishchi muhitining har qanday yoshdagagi o'quvchilar uchun qulayligi, interfeysi va imkoniyatlari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье представлена информация о значении Scratch в образовании, создании анимационных и интерактивных проектов, мультфильмов и других мультимедийных продуктов в среде программирования Scratch, об удобстве, интерфейсе и возможностях рабочей среды программы Scratch для учащихся всех возрастов.

Annotation: This article provides information about the importance of Scratch in education, the creation of animation and interactive projects, cartoons and other multimedia products in the Scratch programming environment, the convenience, interface and capabilities of the Scratch working environment for students of all ages.

Keywords: Scratch, branching algorithm, animation, interface, events, actions, controls and variables.

Kalit so`zlar: *Scratch, tarmoqlanuvchi algoritm, animatsiya, interfeys, hodisalar, harakatlar, boshqaruvchi va o`zgaruvchi bo`limlari*



Scratch butunlay turli yoshdagagi kishilar - maktabgacha yoshdagagi bolalardan tortib, nafaqaga chiqqanlarga qadar, ularning ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar uchun kompyuter kurslari mantiqiy fikrlashga, ma'lumotlarni tahlil qilishga, toiflashga va ma'lumotlarni tizimlashtirishga, shuningdek, jamoa bo'lib ishlash qobiliyatini shakllantirishga, jamoadagi rollarni taqsimlashga yordam beradi.

Maxsus materialni tushunib, o'zlashtirishning qulayligi shundaki, dasturlash mashg'ulotlari o'yin, animatsion rasmlar yoki multiplikatsiya qilingan filmlarni yaratish shaklida amalga oshiriladi. Biroq, bu Scratchning yagona afzalligi bu emas - siz ushbu tilni farzandlaringiz bilan o'rganishingiz mumkin, chunki u orqali siz bolalarga fizika, biologiya, tarix va boshqa ko'plab umumiyligi fanlarini dastur orqali illyustratsiyaviy tushunchalarining shaklida o'rgatishingiz mumkin. Shu bilan

bir qatorida, vaqt o'tishi bilan ishlab chiquvchi mutaxassislar ovozli xususiyatlarini kiritish orqali tilni takomillashtirishdi, bu esa vazifani sezilarli darajada yengillashtirish imkonini yaratadi [1,2].


Scratch dasturida ishlashning ikkita usuli mavjud. Birinchi usul online shaklida bo'lib, *scratch.mit.edu* saytida ro'yxatdan o'tish orqali ishlash mumkin. Ikkinci usul offline hisoblanib, bunda avval dastur kompyuterga o'rnatib olinadi va dastur ilovasi ustida sichqonchaning chap tugmasini ikki marta bosish orqali ishga tushiriladi (1-rasm).



1-rasm. Scratch dasturi interfeysi

Tarmoqlanuvchi algoritmlı masalalarni yechishda ko'maklashuvchi dasturlar soni bugungi kunda ko'chilikni tashkil qiladi. Misol uchun Paskal, Delphi, C++, C#, Java, Python va boshqa shu kabi dasturlar yordamida barcha masalalarni echimini topish imkoniyati mavjud.

Mazkur imkoniyatlar Scratch dasturida ham mavjud. Ahamiyatlisi shundaki, Scratch nafaqat dasturlash tili, balki harakatlar natijalari ko'zga tashlanadigan interaktiv muhit bo'lib, dastur bilan ishlashni aniq va qiziqarli qiladi. Bunda sizga rangli bloklar yaqindan yordam beradi. Har bir rang ostida ma'lum harakatlar va vazifalarni bajaruvchi bloklar mavjud (2-rasm):



2-rasm. Begin xizmatchi so'zini Scratch dasturida ifodalanishi

2-rasmida sariq rang ostida joylashgan "**Hodisalar**" bo'limi bayroqcha bosilganda bloki bilan boshlanadi. Boshqa bir dasturlash tillari bilan solishtirganda bu, **begin** ya'ni **boshlash** xizmatchi so'zini anglatadi. Demak, bayroqcha belgisi bosilishi bilan dastur natijasi, maxsus maydonchada aks etadi.



“Harakatlar” bo`limi ko`k rangda bo`lib:

- 10 qadam yurish;
- 15 darajaga burilish;
- x va y ga borish;
- siniyada tasodify joyga borish va harakat yo`nalishi kabi mazmundagi biloklardan iborat (3-rasm).

3-rasm. Harakatlar blokining ifodalananishi.



“Boshqaruvchi” bo`limidagi bloklar yordamida tarmoqlanuvchi, va takrorlanuvchi dasturlar bilan ishlashda keng yordam beruvchi bliklar mavjud:

- 10 marta takrorlash;
- har doim;
- agar bolsa;
- agar bolsa aks holda;
- gacha takrorlash va shu kabi boshqa bloklar mavjud (4-rasm).

4-rasm. Boshqaruvchi bloki turlari.


Mazkur bloklardan foydalangan holda, tarmoqlanuvchi algoritmlı masalalarni dasturlashni osongina bajarish mimkin.

Masala: a soni berilgan. Berilgan a sonini juft va toqligini aniqlovchi dastur tuzing.

Yechish g‘oyasi:

Scratch dasturini ishga tushirib, begin xizmatchi so’zini ifodalovchi blogini dastur tuzish maydoniga joylashtiriladi. Uning tagiga sezgirlik bo`limida joylashgan blogi qoyilib, “ismingiz nima” so’zi o’chiriladi va “butun sonni kriting” yoki “a =” deb yoziladi. So’ngra, kiritilgan o’zgaruvchi ekranda ko’rinishi uchun **“O’zgaruvchi”** bo`limida joylashgan o’zgaruvchi yaratish buyrug‘i orqali kerakli o’zgaruvchi (**a**) hosil qilinadi (5- rasm).






5-rasm. Yangi o'zgaruvchi hosil qilish.

“моя переменная” (mening o'zgaruvchim) dan “a” tanlanadi. Shart ya'ni tarmoqlanuvchi operatorini joylashtirish uchun “Boshqaruvchi” bo'limidan quyidagi: *agar_bo'lsa*, *aks_holda* bloki tanlanadi. Blok ustiga quyidagi shart joylashtirladi.

Agar shart qanoatlantirsa, a juft son, aks holda, esa toq son deb kititiladi:

Scratch muhitida dasturning to'liq ko'rinishi quyidagicha bo'ladi (6-rasm):



6-rasm. Berilgan masala yechimining Scratch dasturi ko'rinishi.

Shunday qilib berigan tarmoqlanuvchi algoritmlni masalaning dasturini Scratch muhitida mahsus rangli bloklar yordamida aniq va qiziqarli tarzda tuzub chiqdik.

Yuqoridagi masalaning C++ dasturlash tilidagi dasturi esa quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

Misol: Berilgan a sonini juft yoki toqligini aniqlovchi programma tuzilsin.

Agar a sonini 2 ga bo'lganda qoldiq 0 ga teng bo'lsa, bu son juft, aks xolda toq.

```
#include <iostream>

using namespace std;

int main()
{
    int a;
    cin >> a;
    if (a % 2 == 0)
        cout << "juft";
    else
        cout << "toq";

    return 0;
}
```

7- rasm. Berilgan masala yechimining C++ dasturi ko`rinishi.

Xulosa:

Yuqorida keltirilgan dasturni tuzish ketma-ketligini ko'rib, shunday xulosaga kelish mumkin-ki: Scratch tologiyasi yordamida dastur algoritmini tuzish bir muncha oson va qulay. Shu bilan birga rangli bloklar yordamida masalalarni yechish jarayoni o'quvchilar uchun sodda va qiziqarli hisoblanadi.

Scratch dasturdagi grafik imkoniyatining qulayligi sababli, kichik yoshdagi bolalar ham sodda multimediya loyihalarini bajara oladi. Shu bilan birga dastur tuzish jarayonini ham oson o'zlashtiradi. Bundan tashqari ekrandagi qahramonlarini harakatga keltirishi, liboslarini va rangini hoxishga qarab o'zgartirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Денис Голиков. Scratch для юных программистов. — СПб.: БХВ-Петербург, 2017. — 192 с.
2. Kamaltdinova, D. T."Informatika va axborot texnologiyalari": umumiy o'rta ta'lif mifikalarining 5-sinfi uchun darslik: D. T. Kamaltdinova, D. M. Sayfurov - Toshkent: "Tasvir", 2020. - 112 b.